



UO‘K: 82-1:502.74(575.1)

## “BOBOTOG” ESSESIDA PEYZAJ: FLORA TASVIRIDA BADIYLIK

## ПЕЙЗАЖ В ЭССЕ «БОБОТОГ»: ХУДОЖЕСТВЕННОСТЬ В ОБРАЗЕ ФЛОРЫ

## LANDSCAPE IN THE ESSAY "BOBOTOG": ARTISTIC EXPRESSION IN THE IMAGE OF FLORA

Murtazoyev Bobonazar Xurramovich<sup>1</sup><sup>1</sup>Termiz davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası, f.f.n., dotsentHafizova Feruza Odiljon qizi<sup>2</sup><sup>2</sup>Termiz davlat universiteti doktranti**Annotatsiya**

Maqolada yozuvchi Mengziyo Safarovning “Bobotog” asari xususida so‘z yuritilib, taalluqli xulosalar yasaladi. Asar Surxon vohasining antik tarixi va uning hozirgi zamon ekologiyasiga aloqador muammolarga bag‘ishlanganligi bilan o‘z qimmatiga egadir. Zotan tabiat va inson hozirgi globallashuv zamonida o‘ziga xos jumboqlarga duch kelmoqda, bundan buyon bu hodisa jiddiylashib va chuqurlashib boraveradi, u aslo to‘xtamaydi. Asarda tabiat va inson mavzusi bosh maqomga ega, bilamizki, tabiat va inson mutanosib taraflar, inson tabiat qo‘ynida kamol topadi, tabiatsiz inson hech kim, bu tezis yangilik emas, albatta.

**Аннотация**

В статье рассказывается о произведении «Боботог» писателя Менгзиё Сафарова и делаются соответствующие выводы. Ценность работы связана с ее посвящением древней истории Сурханского оазиса и проблемам, связанным с его современной экологией. Уже сейчас природа и человек сталкиваются с уникальными задачами в нынешнюю эпоху глобализации, отныне это явление станет более серьезным и глубоким, оно вообще не прекратится. Тема природы и человека имеет основной статус в произведении, мы знаем, что природа и человек — равные стороны, человек зреет в лоне природы, человек — ничто без природы, этот тезис, конечно, не нов.

**Abstract**

The article analyzes the landscape imagery in Mengziyo Safarov’s essay *Bobotog*, with a focus on the artistic depiction of flora. The value of the work lies in its reflection on the ancient history of the Surkhan oasis and its connection to contemporary ecological challenges. In the era of globalization, the relationship between nature and humanity becomes increasingly complex and profound. The essay portrays a harmonious relationship between humans and nature, emphasizing that human development is deeply rooted in the natural world — a theme conveyed through aesthetic and literary means.

**Kalit so‘zlar:** Havo, tuproq, atrof, tabiat, inson, tarix, badia, esse, xayol, o‘y, fikr**Ключевые слова:** Воздух, почва, окружающая среда, природа, человек, история, искусство, очерк, фантазия, мысль**Key words:** Air, soil, environment, nature, human, history, artistic expression, essay, imagination, thought, opinion.**KIRISH**

Mengziyo Safarov tabiat shaydosi edi, tabiatni ehrom qadar ulug‘lagan yozuvchi uni avaylab-asrashni sidqidildan targ‘ib etardi. U tabiatni va uning quchog‘ini esa bizning beshigimiz deb biladi, shu jihatdan qaraganda uning Surxon daryosi xususidagi o‘kinchilari kishini sukutga cho‘lg‘aydi, mana ular: “Yangi zamon keldi. Yangi hayot boshlanadi. Surxon ham bu hayotdan chetda qolmadi. Asrimizning o‘ttizinchi yillari. Katta Qumqo‘rg‘on kanali qurildi. Surxon ikkiga bo‘lindi. Oltmishinchi yillar. Janubiy Surxon suv ombori... Hozir daryo eski yo‘lini unutdi... Orol dengiziga o‘xshab ketadigan suv ombori Surxonning so‘nggi qo‘nalg‘asi bo‘ldi. Bu qo‘nalg‘adan u janubi-g‘arbdagi chanqoq, hayotga tashna Sherobod cho‘liga yo‘l oladi. Yashil paxtazor, go‘zal bog‘, behisob qishloqlar, shaharlar tomon oqadi. Odamlar esa buni hayot deb atashadi” [11]. Yana bir misol: “Sirdaryo, Zarafshon, Surxon va boshqa ko‘plab daryolar yaqin yigirma-o‘ttiz yil

## ADABIYOTSHUNOSLIK

mobaynida qadimiy ona o'zanlarini tark etishdi. Bunday qismat Amuga ham xavf solib turibdi. Bu asov daryo ham, qadimda uning izmida bo'lgan sohillar ham odamzot amriga bo'ysuna boshladi" [11]. Xolisalillo aytganda, 60 – 70-yillari bu xil gaplarni dadil aytishning o'zi bo'lmas edi, bu buyuk jasorat edi, bu ulug' bir isyon va tug'yon edi.

Mengziyo Safarovning "Bobotog'", "Payg'ambar oroli" va "Ayrishox" qissalari ham tabiat ko'rki, tabiat sehri jumboqlariga bag'ishlangan. Tabiat haqida yozuvchining o'zi ushbularni bitgan: "Bir tup pista hosilga kirguncha chaqaloq yigit bo'ladi... Inson tabiatni ona deb e'tirof etar ekan, unga bo'lgan ixlosi, mehrini hamisha, har kuni amaliy ish bilan barqaror qilsin" [11].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Surxon vohasining kunchiqar tarafida yastanib yotgan serviqor tog' tizmasini Bobotog' deb atashadi, "Bobotog' – tog'lar bobosi – o'z nomini bir necha yuz yillar muqaddam olgan" [10]. Yunon muarrixlari Arrianning "Iskandar yurishlari" va Kvint Kursiy Rufning "Iskandar tarixi" asarlarida Bubakena degan viloyat nomi uchraydi, Bubakena – Bubaken – Bubakan yunoncha talaffuzga moslab yozilgan. Yerli, tub aholi o'lkani qanday talaffuz qilishgan bilmaymiz, balki Babakan – Bobokon (taxminan katta kon) bo'lgandir, shu tariqa viloyat nomi tog' nomiga yoki aksincha tog' nomi viloyat nomiga ko'chgandir. Nihoyat davrlar, asrlar osha Bobokon Bobotog'ga aylanib, faqat tog'ni ifodalay boshlagan bo'lishi ehtimol, boisi Gabaza (taxminan Boysun) va Paritaka (Sherobod, Kuhitang etaklari faraz etiladi) viloyatlari ham Bubakena kabi Baqtriyaga tobin viloyatlar sirasiga kirgan.

Vohamizning chinakam vatanparvari Mengziyo Safarovning qaysi bir asarini olib o'qimang, ularda vohamiz tabiati bosh mavzu ekaniga iqror bo'lasiz. Yozuvchining "Ona tuproq qo'shig'i"(1965), "Bobotog'"(1968), "Payg'ambar oroli"(1979), "Ayrishox"(1989), "Sarbasta Surxon"(1990) va boshqa qator asarlari borki, ularning markazida ona tabiat tasviri etakchilik qiladi Adib tog'lar bobosi Bobotog'ni ayri-ayri bir entikish, alohida bir ilhaqlik, hatto, ichki ishtiyoq, shaydolik, shodlik va beqiyos qoniqish bilan qalamga oladi. "Bobotog'" essesi oddiy, jo'ngina jumlar ila ibtido topadi: "Tashqarida qushlar chug'urdaydi, mollar bo'kiradi, tovuqlar ququlaydi, odamlar qichqirib - chaqirishadi" [10]. Rostini aytganda, bular go'zal so'zlar shodasi emas, balki bejirim so'zlar tizmasi, to'pori qishloq hayotiga xos lavha, sodda, samimiy turmush manzarasi. Bir o'rinda yozuvchi ichki tug'yon sadosini, ichki isyon nidosini ochiqcha oshkor etadi: "Bobotog' har bir surxondaryolik uchun aziz va muqaddasdir" [10], deydi. Bu – endi bor gap, haqiqiy – gap, haqiqatning bundan ortig'i bo'lmaydi, qolaversa, dil – izhori, ko'ngil – shiori, yurak – chaqirig'i, qalb – hayqirig'i!

Bobotog' – tog'lar bobosi, Bobotog' – har birimiz uchun aziz go'sha va qadrdon maskan. Asarda Bobotog' uchun, uning taqdiri uchun kuyib-yonib, kerak bo'lsa jizg'anak bo'luvchi, lozim topilsa jon fido etishga tayyor, lekin evaziga hech narsa talab qilmaydigan fidokor insonlar hayoti yoritiladi. Mengziyo Safarov tabiat mo'jizalarini yanada mo'jizakor tarzda ifodalaydi, uning sinchkovligiga tasanno aytmasdan o'zga iloj yo'q. Bobotog'ning so'lim bag'rida har yil bahorda unib, o'sib, chiroy ochadigan va o'zini ko'z-ko'z qiluvchi lola guli ta'rifiga e'tibor qiling: "Uning bo'yi baland, poyasi yo'g'on, gulkosasi shopiyolaning og'zidek yirik, gulbarglari baquvvat, keng. Ularga soatlab qarasangiz ham ko'zingiz to'ymaydi" [10]. Bu ta'rifdan anglashiladiki, Bobotog' lolasi shu oilaga mansub boshqa lola gullaridan keskin farq qilar va u "cho'g'dek yonib turar" [10] ekan. Bularning bari sinchkov kuzatuv natijalari ekani aslo sir emas, sinchkovlik samarasi o'laroq vohamiz tabiatining nabotot olami ko'z o'ngimizda namoyon etilmoqda. Mengziyo aka qalamga olgan Bobotog' lolasi "Boburnoma"ning ikki o'rnida lola guli va uning navlari xususida so'z yuritilgan lavhalarni bexos xotirga tushiradi. "Boburnoma"da o'qiyimiz: "Bu domanada rango-ranga har nav' lola bo'lur. Bir qatla sanattim, o'ttuz ikki-o'ttuz uch nav' g'ayri mukarrar lola chiqti. Bir nav' lola bo'lurkim, andin andak qizil gul idi kelur, lolai gulbo'y der eduk. Dashti Shayxta bir parcha erda bo'lur, o'zga erda bo'lmas. Yana ushbu domanada Parvondin quyiroq sadbarg lola bo'lur, ul ham bir porcha erda G'urband tangisining chiqishida bo'lur" [1]. "Boburnoma"ning boshqa o'rnida yana o'qiyimiz: "Sabzasi Kobul viloyatining o'zga erlarig'a boqa, xeyli yaxshi bo'lur, turluk-turluk lolalar ochilur, bir qatla lola anvoini buyurdumkim, sanadilar, o'ttuz to'rt nav' lola chiqti,... [1]" Bobur shohning bu kuzatuvlari bizning zaminimiz uchun ham taalluqlilik kasb etishi muqarrar, zotan tog'larimiz shu qadar ulug' va ulkanki, biz hali ularning barini kashf etdik degan fikrdan yiroqmiz.

“Bobotog” esesining yana bir o’rnida lola guli haqida gap ketadi, Bobotoqqa qilingan safarlardan birida Mengziyo akaga Chagamdagi o’rta maktab o’qituvchisi Bo’riboy yo’l boshlovchilik qiladi. Bo’riboy tog’da o’sgan yigit, u tog’ning qiyin joylariga ham epchillik bilan chiqib tusha oladi, u tog’ning bir tepaligiga chiqib, Mengziyo akaning yozishicha, “... umrimizda hech ko’rmagan Govurgon lolaridan bir dasta terib, yonimizga tushib keldi”, [10] deydi. Bobur Afg’oniston tog’larida uchratgan o’ttiz xildan ortiq lolalarning ayni bir turi shu Govurgon lolasi bo’lib chiqsa, ne ajam! O’zbekistonimizning hozirgi zamonaviy qizil kitobida, lolaning, umuman, lola gulining olti xil turi borligi qaydini topgandir. Baralla aytish mumkinki, qadimda – Bobur zamonlarida, demak bizning tog’larimizda ham shuncha xil lolalar bo’lgani bor haqiqat. Ana endi o’tmishdagi o’ttiz to’rt xil lola navi bilan hozirda mavjud bo’lgan olti nav lola gulining qiyosi shuni anglatadiki, bizning davrimizga kelib, tabiat va inson mutanosibligiga putur etkazib bo’lingan ekan. Bu fikrlarni ardoqli adibimiz, **marhum Pirimqul Qodirovning** so’zlari ham tasdiqlaydi, chunonchi, Pirimqul Qodirov 1973-yili Surxon diyorida mehmon bo’lganda Tesha Saydaliyev (1933–1973) va Mengziyo Safarov(1938–1994) bilan Bobotog’ sari yo’l olishadi. Ular safar davomida Olamjahon, Fayzova, Isliqi soylarida bo’lishadi, Bobotog’ning ko’rkam manzaralarini tomosha qilishadi, ularni hamma joyda xushnudlik bilan kutib olishadi. “Pirimqul aka bir tepalikka chiqib, bir joyning o’zidan etti xil rangdagi dasht gullarini terib oldi”, [10] deydi Mengziyo Safarov. Shunda Pirimqul Qodirov aytgan ekan: “Men O’zbekistonimizda bahorning bunaqa zo’r bo’lishini birinchi ko’rishim” [10]. Ha, azizlar, bizning Surxon vohamizning o’z tabiati bor va bu tabiatning o’zgacha tarovati bor, biz buni hali anglab etmog’imiz lozim. Bobotog’ning mehriyosi bor, uning etaklariga etuk adabiyotshunos, O’zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov, sevimli yozuvchimiz O’tkir Hoshimov, olimlardan Bahodir G’ulomov, Abdug’afur Rasulovlar ham bir paytlar (1978) tashrif buyurishib, Bobotog’ning so’lim va betakror tabiatiga mahliyo bo’lishgan edi.

#### NATIJA VA MUHOKAMALAR

Ana shu dilkash uchrashuvlar va xotirada o’chmas iz qoldirgan sayohat taassurotlarini eslab, taniqli adabiyotshunos olim, **marhum Abdug’afur Rasulov** keyinchalik bir yodnomasida ushbularni yozadi: “Har bir sayohatimiz o’ziga xos tarix ekan. Bobotog’ sayohatini eslayman. Qanday tog’larimiz, har biri yuz dardga davo antiqa giyohlarimiz bor!... Kovrakni qurs-qurs chaynagan Mengziyo ko’z o’ngimda turibdi. Bobotog’ va Mengziyoday o’z yurti tarixini biladigan, uni qoyilmaqom hikoya qilib beradigan odam kamdan-kam bo’lsa kerak. O’sha safarimizda Mengziyo menga kichkinagina bir baliq skletini sovg’a qilgan edi, yodingizdami? O’sha zig’irday-zig’irday baliqlarning bir galasi zumda ulkan baliqlarni qoq suyak qilib tashlashar ekan. O’shanaqa vahshiy baliq Amerikaning qaysidir daryosida ham bor ekan. Qani edi, o’sha safar-sayohat taassurotlarini miriqib yozsang... [7]!

“Bobotog” esesida hikoya qilinishicha, sayohatchilar tog’ yo’lining xatarli va qo’rqinchli azoblariga chidab, goh ot-ulovda, goh mashinada yo’l bosib, toliqish-charchashlar bilan Duxona qishlog’idan Qo’rg’oncha qishlog’iga etib borishadi. Yo’lda ketayotib, yo’l boshlovchi o’rmon xodimi, sal yurib qishloqqa enamiz, kelib qoldik, ana endik, ana endik, mana keldik, deb betoqat mehmonlarni ovutishga urinadi. “Qo’rg’onchaga kelganda esa Ozod aka hazillashib bir gap qotdilar: Bu deyman, og’alar, enamiz, enamiz, deb sal qoldi-yu... enamizni emishimizga, – dedi. Rosa kulgi bo’ldi. Shu bilan barcha charchoqlar ko’tarilib ketdi” [10]. Bu hali holvasi edi, chunki oldinda Bobotog’ning Chorrahaga borish rejasi turar edi, sayohatchilar u erga ham borish sharafiga muyassar bo’lishadi. Shu sayohat bilan bog’liq Bobotog’da paydo bo’lgan latifanamo yangi nomlarga urg’u beriladi va Tana bo’kirdi (tog’ dovonining mashaqqatli, og’ir yo’lida chidayolmagan yosh tana bo’kirib yuborgan ekan), G’iyos halqa (aspirant G’iyosov tog’da uzoq yillar pista ekib, ilmiy ish olib borgan), Shoir yiqildi (tog’da mehmonga kelgan shoir yigit otdan yiqilib tushadi), Qalandar uchdi (noma’lum qalandar zovdan uchib o’lgan), Ozod yo’l kabilarning har biriga izoh beriladi. “O’sha kungi davra yana bir nom xususida hukm chiqardi. Shu damdan e’tiboran Sharrak – Qo’rg’oncha – Chorraha – Qorayumaloq uzra mashinalarda ilk bor bosib o’tganimiz sharafiga yangi yo’l nomini – Ozod yo’l deb e’lon qildik” [10]. Mengziyo aka Toshkentga borgan kezlari Ozod aka hazillashib, o’z nomi bilan atalgan yo’lni so’rab-surishtirib turar ekan. Mengziyo aka bo’lsa Chorrahaga Denov orqali tosh (asfalt) yo’l qurilgani, Bibichakkaga yangi yo’l chiqqani, umuman, bari yangiliklarni so’zlab berar ekan. Bularning bari yaxshi, lekin Mengziyo akani boshqa

## ADABIYOTSHUNOSLIK

bir narsa tashvishga soladi: “Bu yangiliklar, ravon yo‘llar, qulayliklar bu qutlug‘ tog‘ning ibtidoiy chiroyiga, nabotot va hayvonot olamiga putur etkazmasmikin?” [10]

Asarda pista daraxti, uning xosiyatlari atroflicha tahlil etiladi, muallif pistaning o‘tmishi, kechmishi, ertasi haqida shunchalik to‘liq ma‘lumot beradiki, boshqa ma‘lumotga ehtiyoj qolmaydi. Pistaning tarqalishidan tortib, madaniylashtirish jarayonigacha yoritiladi, uning unib-o‘lishi, tomirlari, shoxlari, barglari, mevasi, chidamliligi, boringki, jami sifatleri sanab o‘tiladi. Pista tomirlarining yon taraf bo‘ylab tarvaqaylashi va o‘q ildizning chuqur ketib suvga intilishi, mevasining foydasi, turli kasalliklarga davosi, xushxon bulbullar uning mevasiga o‘chligi hikoya etilgan sahifalar ancha maroqli. “Jaziramaga chidamlilikda saksovul ham” [10] pistaning oldiga tusholmas ekan, uning yaproq va kichik shoxchalaridan buyoq, tanasidan pista elimi olinar ekan, pistaning ko‘miri eng qimmat bo‘lib, yog‘ochidan chidamli qayiqlar yasalar ekan, “ming yoshga kirgan pistalar ham bo‘lar” [10] ekan. Qushlar ichida bulbul pista mevasi ila oziqlanibgina qolmay, uning mevalarini yig‘ib, o‘zlariga zaxira jamlaydi. Ana shu taxlit bulbullar o‘zlari bilmagan holda pista urug‘larini keksa Bobotog‘ning odam qadami etmagan joylarigacha yoyishga erishadi. Chunki bulbul pisatani turli cho‘qqilarga yoki o‘zi uchun qulay o‘ra, dara, jarlik joylarda to‘plab, so‘ng uni unutadi, oqibatda o‘sha unutilgan pistalar qor va yomg‘ir suvlaridan to‘yinib, bo‘lajak pista daraxti uchun manba vazifasini o‘taydi. Ana shu manzaralar tasviri bilan pista va bulbullar voqeasi mushtarak holda Bobotog‘ tabiatiga husn bo‘lgan ko‘rkam va so‘lim go‘shalar maftunkorligi tarannum etiladi. Yozuvchi bir o‘rinda pista haqida g‘aroyib naqlni keltirib o‘tadi: “Bir tup pista hosilga kirguncha chaqaloq yigit bo‘ladi” [10]. Shu birgina gap tagida nechog‘lik ma‘no, mazmun mujassam, inson va tabiat mutanosibligining naqadar shoirona talqini berilmoqda. Bularning bari tabiatga bo‘lgan mehrning jo‘shqinligi, tabiatga fidoyilik belgisi, tabiat uchun qayg‘urish andishi ila yashashning yorqin isbotidan bo‘lak narsa emas. Xullas, Bobotog‘ bag‘ridagi zilol buloqlar, musaffo jilg‘alar, kumush soylar, serviqor cho‘qqilar, baland daralar, sirli g‘orlar, pistazorlar, archazorlar, bodomzorlar birma-bir nazardan o‘tkaziladi, ularga monand joziba qalamga olinadi.

“Tog‘liklar har bir joyga nom qo‘yishni yaxshi ko‘rishadi”, [10] deydi muallif va joy nomlari bog‘liq rivoyatlarni tog‘lik keksalar tilidan hikoya qiladi. Bu rivoyatlar “Tana bo‘kirdi”, “Dovlaning havori”, “Qiz o‘ynar”, “To‘pxona”, “Qirqqiz o‘ldi”, “Shoir yiqildi”, “G‘iyos halqa”, “Ozod yo‘l”, “Qalandar uchdi”, “Rajab morxo‘r tovasi” deb atalgan joy nomlari rivoyatlaridir. “Rajab morxo‘r tovasi” nomli rivoyat g‘oyat hayajonli ekanligi bilan ajralib turadi, unda rivoyat qilinishicha, Rajab mergan ovga otlanadi, u ov payti tog‘ning dara-qirlarini, qoya va cho‘qqilarini kezib morxo‘r (qo‘sh TUYOQLILARNING eng yirigi)ni izlaydi. Morxo‘rni izma-iz ta‘qib etgan mergan, oxiri uning izini topadi, hayvon ham anoyi emas, jon shirin, u chap berishga intiladi. Mergan o‘ljani qo‘lga kiritadi, lekin ovga berilib ketib, qiziqqanidan muqarrar ajal tovasiga o‘zining chiqib borganini sezmay qoladi. Darhaqiqat mergan tuzatib bo‘lmas xatoga yo‘l qo‘yganini tova (orolsimon joy, atrofi o‘ra, zov, na chiqib bo‘ladi, na tushib)ning ustida sezadi. Mergan bu er (tova)dan tirik tushib bo‘lmasligini anglaydi, u bir necha kun morxo‘rning go‘shiti bilan vaqtni o‘tkazadi, qoq (qattiq er)da to‘plangan yomg‘ir suvlaridan chanqoqini bosadi. Merganning bedarak yo‘qolgani ma‘lum bo‘lgach, qishloqdagilar uni axtarishga tushadi, izlab-izlab uni Vatanning darasidagi tovanidan topishadi, voqea qishloq oqsoqollariga etkaziladi. Hamqishloqlar Rajab merganni qutqara olmasliklariga ko‘zlari etgach, noiloj oxirgi chorani tanlashga majbur bo‘ladilar. Voqea joyiga Rajab merganning xotinini olib kelishadi, uni merganga ro‘para qilishadi, mergan hayronu lol, tepadan pastga mayus qarab turadi. Qizig‘i merganning do‘stlaridan biri uning xotiniga shilqimlik qila boshlaydi, kuchoqlaydi, muchi oladi. Shu yo‘l bilan merganni pastga sakrashga majbur etish edi, zotan, ovchi o‘zini, allaqachon o‘limga mahkum etgani aniq. “Shunda Rajab morxo‘r xuddi burgutdek so‘nggi parvozini qildi. Ko‘zlariga qon quyilib, “munofiq” yigitga va “bevafo” xotiniga tashlandi” [10]. Maqsad bitta merganning og‘aynilariga loaqqal uning jasadi tegishi lozim va uni udum-rusumga moslab dafn etish edi. Rivoyat ushbu satrlar ila intihosiga etadi: “Rajab morxo‘r shahid bo‘ldi. Vatanning darasidagi bu oroltovaga esa “Rajab morxo‘r tovasi”, [10] deb nom qo‘yishdi”. Bu fojiali rivoyatni yozuvchiga butun umri ovda o‘tgan, endilikda keksalik gashtini surayotgan Turum mergan bobo so‘zlab beradi.

“Bobotog‘” essesinde nafaqat rivoyat, balki bo‘lgan hodisalar tasvirini topgan voqeyiy hikoyalar ham mavjud, bu – yosh umri behuda xazon bo‘lgan, shaddod Kumush haqidagi hikoyadir. Kumush suronli qizil inqilob faollaridan, xotin-qizlarning faolligi ko‘pincha fojia bilan xotima topganidek, bu

voqea ham fojia bilan tugaydi. Kumush qismati, o'ta ayanchli taqdiri, g'oyat mungli hikoya chuqur o'kinch bilan tasvir etiladi, voqealar rivoji, echimi kitobxonni larzaga soladi. Yolg'on va bo'htonlarga uchgan Kumushning ikki akasi qonxo'r maxluqqa aylanadi, vahshiylik holatiga kiradi, o'z singillarining qotili bo'ladi. Bu hikoya voqealari guvohi Kumushning jufti haloli (uning ismi aytilmagan) tilidan beriladi, u ham fojia tufayli jazoga tortiladi, yigirma ikki yil deganda qishlog'iga qaytadi. Dilpora inson bir paytlar navqiron yigit, endilikda dilxasta cholga aylangan bu odam, butun umrini yolg'izlik qa'rida o'tkazadi, o'zini-o'zi shunga hukm etadi. Uning yagona ovunchog'i hovlisi sathidagi lolazor, o'zi parvarish etgan lolalar unga mash'um tunni, bo'g'izlangan ikki qat Kumushni eslatadi, lolazor Kumushga, uning vujudi bilan halok bo'lgan norasida uchun mangu xotira demakdir.

Ochig'ini aytganda biz so'z yuritayotgan asar, aslida tabiat va inson muammosini birinchi rejaga olib chiqqan asarlar sirasiga taalluqli, bu asar ana shunisi bilan qadrlidir. Bilasizmi, bu asarning har bir satrida tabiat va inson tilga olinadi, xususan, Bobotog' tabiati, uning ko'rkam go'shalari, inson obod qilgan mavzelari ham, inson barbod qilgan mavzelari ham tilga olinadi. Hech bir narsa e'tiborsiz qoldirilmaydi, balki har bir yutuq va har bir muammo borligicha tasvirlanadi, xoh u oddiy, xoh u badiiy bo'lsin ifodasini to'liq topadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Adib asarda nabotot bormi, hayvonot olami bormi, bari-barini birma-bir tasvirlaydi, ularga bo'lgan insonning ezgu yoki yovuz munosabatini ham ayab o'tirmaydi. Yaxshi bo'lsa yaxshi, yomon bo'lsa yomon deydi, vaholanki, biz odamlar yaxshini yaxshi deyish bilan birga yomonni undan oshirib yaxshi deyishga moyil bo'lib qoldik. Asarda keksa mergan bobo tilidan kiyiklar haqida hikoya qilinuvchi lavha mavjud, bu voqealar Ikkinchi jahon urushigacha va undan keyingi yillari ro'y bergan ekan. Mergan boboning hikoya qilishicha, "Ayniqsa, kiyik ko'p edi. Qo'rg'onchaniq betida shunday qizarishib yurardi. Serkalari shoxlashganda qarsillagan ovozi qishloqqa eshitilardi" [10].

Mengziyo Safarov Bobotog'ni keksa mo'ysafid qariyaga mengzaydi, "qarisi borning parisi bor", deydi xalqimiz, zotan navqiron yoshlik, sokin keksalikdan fayz oladi, axir yoshlikning intihosi keksalik ekani hech kimga sir emas. Shunga ko'ra, Mengziyo Safarov yozadi: "Keksalarning himmati, saxovatiga hamisha ehtiyoj bo'lgani singari, bu toqqa (ya'ni Bobotog') ham ehtiyoj va ixlos hech qachon so'nmaydi" [10]. Tog' – ulkan va bag'ri keng maskan, u ayni zamonda xazina, keksalar – ham bitmas-tuganmas ganjina, chunki ular borlarini yosh avlodga qoldirishga tayyor. Adib davom etib yozadi: "Axir, uning (Bobotog'ning) bag'ri bebaho xazina-ku!" [10]. Darhaqiqat tog' bu – keksalar, uning – tog'ning bag'ridagi xazina esa – yoshlar, yosh avlod bo'ladi. Keksalar avlod vakillari bilan yosh avlod vakillarining rishtalari uzviy, mustahkam, uni hech qanday kuch ajrata olmaydi, chunki maqsad, pirovard – natija bitta, Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirishdir.

Adib Bobotog'ning har bir qarich erini mehr ila tilga oladi, bular: Birmesh bulog'i, Zarkosa yaylovi, Govurgon tovasi, Tilloqoziq va Qorayumaloq cho'qqilari, Chagam qishlog'i, soylardan Arg'amchisoy, Isliqisoy, Jiydabuloq, shuningdek, Tuyao'rgach qiri, Teraksoy va Azlarbuloq dovonlari, Eshon yo'l so'qmog'i, Vatanning darasi va boshqalar. Esseda badiiy tasvir vositalaridan ham unumli istiqoda etiladi, masalan, "Tog' ustidan mo'ralan quyosh!", [10] "Osmonning rayi ochildi", [10] "Ertalabdan osmonning qovog'i osiq edi", [10] "Surxon va Kofirnihon tinmay shovqin soladi, kuylaydi", [10] "Bahor kuhlik ayol kabi guldor ko'ylagining etaklarini yig'ishtirganicha...", [10] "Kelinchak bahor bizni Qorayumaloq, Alimbuloq va Zarkosada jamolini ko'z-ko'z qilib kutib oladi", "...bahorning nazokatli qizi – lola", "Oy sutdek yorug' edi", [10] "Pastda shovullab oqqan telba Kofirnihonning o'kirishi kechayu kunduz eshitilib turadi"[10].

#### XULOSA

Mengziyo Safarov oqsoch Bobotog' quchog'ida hormay-tolmay mehnat qilgan, Bobotog' dardi bilan yashagan mehridaryo, jonkuyar kishilardan ko'plarini eslatib o'tadi. Bular: keksa o'rmonchi Abu Shakenov, o'rmon nazoratchisi Abdulla Pardayev, o'rmonchi Ashur Baratov, shofyor Ro'zi Qobilov, o'rmon xo'jaligi direktori Karim Jumaniyozov, direktor o'rinbosari Rauf Ismagilov, maktab direktori Suvon To'raxonov, yilqichi va anvoyi pista navini topgan Yolg'osh To'raqulov, traktorchi Rabi Rajablar. Ular hozir, balki oramizda yo'qtir, ularning – shu ajoyib insonlarning oxirati obod, ruhlari shod bo'lishini istab qolamiz.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev.–Toshkent: Yulduzcha, 1989.–368 b.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

2. Murtazoyev B., Nazarova M. Olam va odam («Payg'ambar oroli» essesi haqida) // O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy hayot: Tarix va tahlil. Respublika ilmiy anjumani. –Termiz: Universitet, 2015. –B. 252–255.
3. Murtazoyev B., Qodirov U. Tabiaga oshufta inson («Bobotog'» essesini varaqlab) // O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy hayot: Tarix va tahlil. Respublika ilmiy anjumani. –Termiz: Universitet, 2016. –B.293–296.
4. Murtazoyev B. «Ona tuproq qo'shig'i» // «Davr, Zamon, Shaxs». Ilmiy-amaliy maqolalar to'plami. 2016 yil, IV qismi va 2017 yil I–II qismlar.–Toshkent: «Tafakkur». –B.15–19.
5. Murtazoyev B. «Ona tuproq qo'shig'i» yoxud voha tarixining ilk badiiy talqini xususida // Surxon tongi. 2018 yil, 6 oktyabrъ.
6. Normatov Nodir. Abadiyat oldida hech kimmiz // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2008 –yil, 19 dekabrъ.
7. Rasulov Abdug'afur. Haqiqatparast // Tafakkur.– 2006. – №2. –B.52–56.
8. Safarov Mengziyo. Boysun lavhalari // Guliston.–1970. –№ 2. –B.14–15.
9. Safarov Mengziyo. Muqaddas tuproq // Sovet O'zbekistoni san'ati.–1981.–№ 2. – 20–21.
10. Safarov M. Tabiat ehromi M.Safarov. Umr chorrahalarida Egamberdiyev Z.– Toshkent: «Yosh gvardiya», 1985.–176 b.
11. Safarov M. Ona tuproq qo'shig'i. Qissalar, esselar, hikoyalar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 352 b.
12. Safarov Mengziyo. Daryo – hayot, manguilik (Yon daftardan) // Sharq yulduzi. – 1991. – № 9. –B. 6–16.
13. Safarov, Mengziyo. Ayrishox: (Qissalar, hikoyalar, esse) / M.Safarov; Mas'ul Muharrir X.Maqsadqulov. – Toshkent: «O'qituvchi» NMIU, 2008 y. – 288 b.
14. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T., Murtazoyev B. Surxondaryo tarix ko'zgisida. – Toshkent: Sharq, 2001. –384 b. (Qarang: –B. 291–293).
15. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B., Pardayev T. Surxondaryo tarixi. –Toshkent: Sharq, 2004. – 608 b. (Qarang: –B. 441; 454–455).
16. Xolmirzayev Sh. Sening qadring o'tdi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1995 yil, 6 yanvar, № 1 [3288].
17. G'ofurov G'ulom. Bobotoqqa safar // Sharq yulduzi. – 1990. –№ 11. –B. 197–198.